

---

**MTT- BU SOG'LOM VA BARKAMOL BOLA SHAXSINI TARBIYALASH.**

**Jumaniyazova Zlixa Reymovna**

*Nukus innovatsion instituti Maktabgacha va  
Boshlangich ta'lif kafedrasи, v.b.dotsenti*

**Tlepbaeva Dinara Izbaskan qizi**

*Filologiya va tillarni o'qitish ta'lif yo'nalishi  
1-bosqich talabasi*

**Rezyume:** Bolalarning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishi, layoqatini xisobga olgan xolda san'atning turli yo'nalishlariga jalb etish, sportning turli turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etish, salomatligini mustahkamlash, ularni har tomonlama chiniqtirish, kompyuter sohasiga qiziqishlarini oshirish, kitob mutolaasi bilan shug'ullanish, turli kasb-xunarga bo'lgan ilk ko'nikmalarini turli o'yinlarda, musobaqalarda shakllantirib borishga ahamiyat qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** tashabbus, immunitet, iste'dod, layoqat, kommunikativ, kompyuter, texnologiya, internet, intellektual, taraqqiyot, strategy.

**Резюме:** Укрепление духовного иммунитета детей, содержательная организация их досуга, приобщение к различным направлениям искусства с учетом их интересов, способностей, организация кружков по различным видам спорта, укрепление здоровья, всестороннее их закаливание, повышение интереса к компьютерной сфере, занятие чтением книг, привитие первых навыков к различным профессиям в различных играх и занятиях., уделяется большое внимание формированию конкурсов.

**Ключевые слова:** инициатива, иммунитет, талант, способности, коммуникативный, компьютерный, технологический, интернет, интеллектуальный, прогресс, стратегический

**Resume:** Emphasis is placed on strengthening the spiritual immunity of children, meaningful Organization of their free time, involvement in various directions of art, organization of circles in various sports, strengthening their health, improving their interests in the computer sphere, engaging in book reading, shaping their early skills in various games, competitions.

**Key words:** initiative, immunity, talent, competence, communicative, computer, technology, internet, intellectual, development, strategy

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtalarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus asosida maktabgacha ta'lif tashkilotida bolalarning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtalarini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishi, layoqatini xisobga olgan xolda san'atning turli yo'nalishlariga jalb etish, sportning turli turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etish, salomatligini mustahkamlash, ularni har tomonlama chiniqtirish, kompyuter sohasiga

qiziqishlarini oshirish, kitob mutolaasi bilan shug'ullanish, turli kasb-xunarga bo'lgan ilk ko'nikmalarini turli o'yinlarda, musobaqalarda shakllantirib borishga ahamiyat qaratilmoqda.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus qo'ydagilar;

*Birinchi tashabbus:* Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish.

*Ikkinci tashabbus:* yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan tadbirlarni uzviyligini ta'minlash.

*Uchinchi tashabbus:* Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog va hodimlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish.

*To'rtinchi tashabbus:* Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog va hodimlar, tarbiyalanuvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish.

*Beshinchi tashabbus:* Xotin – qizlarni ish bilan ta'minlash kabi topshiriqlarini bajarish uchun, bolalarning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda 5 ta tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, milliy o'yinlar bolalarni iymonli, e'tiqodli, aqliy barkamol, sog'lom qilib tarbiyalashda yordam beradi. Xalq o'yinlari bolalarning estetik didini oshiradi, odobli, axloqli qilib tarbiyalaydi. Ularning til boyligini eslash qobiliyatini, ongini rivojlantiriladi. Bolalar sanash, qo'shiq, she'r aytish orqali chaqqon va ziyrak bo'lib o'sadi. Milliy o'yinlar vositalari bilan maktabgacha yoshdagi bolalarini estetik tarbiyalashda, maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachi pedagog va jismoniy tarbiya yo'riqchisining roli katta ækaniagi bolalarda ma'naviy-estetik dunyoqarashini tarkib toptirishda muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega ækaniligi dalillar bilan asoslangan. Har bir tarixiy davr bir qator milliy qadriyatlar tizimida muayyan ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi o'z o'yinlarini ham yaratadi va bu o'yinlar o'z davridagi insonni tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Beshta muxim tashabbus" ni o'rganish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ishida o'z aksini maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan tadbirlar tashkil etishni va yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport soxasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan tadbirlarni uzviyligini ta'minlashni shunungdek, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagog va hodimlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishini va maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog va hodimlarning, tarbiyalanuvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishi ishlarini yulga kuyish eng ovalo Xotin – qizlarni ish bilan ta'minlanlashga e'tibor berishimiz zarur

ekanligin ko'rsatib bergan.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun quydagisi tadbirlar tartibida ishlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lism tashkiloti xodimlari o'rtaida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Beshta muhim tashabbus"ni chuqur o'rganishi.

Maktabgacha ta'lism tashkilotining buyug'i va chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish, ijrosini bandma-band ta'minlanib borilishi,

*Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarining musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan tadbirlar tashkil etishda;*

- Maktabgacha ta'lism tashkilotlari musiqa zallarining jihozlanish holatini "Men ham Vatan himoyachisiman" harbiy-vatanparvarlik badiiy-tadbir o'tkazish, "Men ham Vatan himoyachisiman" harbiy-vatanparvarlik badiiy-tadbir o'tkazish, xatlovdan o'tkazish va natijalari buyicha tuman(shahar) Maktabgacha tuman bo'limiga takliflar kiritish

- Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida "Vatanimni ko'layman", "Gimnastradda" musiqiy badantarbiya tadbirlarini o'tkazib borish

- Kichkintoy kizlarimizni tarbiyalashda "Zumradoylar davrasi" to'garagi bo'yicha tadbirlarini tashkil etish

- "Tabiatni asraymiz, "Osmonomiz musaffo bulsin", "Bolalarga bering dunyon" mavzularida rasmlar tanlovini o'tkazish (*g'oliblarni taqdirlab borish*).

- Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tashkil etilgan qo'g'irchoq teatrlari faoliyatini takomillashtirib, bolalarni musiqa, rassomchilik,

adabiyot, teatr va san'atning boshqa qiziqishlarini oshirishga iste'dodini yuzaga chiqarishga ko'maklashish zarur.

*Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan tadbirlarin tashkil etish;*

- Maktabgacha ta'lism tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisining ish faoliyatini nazorat qilib borish;

- Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sportning turli yo'nalishlarda g'oliblari bilan uchrashuvlar tashkil etib, bolalarda sportga bo'lgan qiziqishlarini orttirish;

- "Men ham Vatan himoyachisiman" harbiy-vatanparvarlik badiiy-tadbirin o'tkazish;

- bolalar o'rtaida ərkin kurash, shaxmat-shashka sport əstafetalarini o'tkazib, g'oliblarni taqdirlab borish;

- o'tkazilgan tanlovlarda g'olib bo'lgan bolalarni aniqlash, ularning ota-onalari bilan suhbatlashib, iqtidorlarini rivojlantirish maqsadida sport to'garaklariga jalb etishda bolalarni jismoniy chiniqtirish,

ularni sport sohasida qobiliyatlarini namoén qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishimiz kerak.

*Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida pedagog va hodimlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish;.*

- Maktabgacha ta'lismi tashkilotin kompyuter bilan ta'minlanganligini o'rganish, xatlov natijalari asosida tuman (shahar) moliya bo'limiga takliflar kiritish.

- Maktabgacha ta'lismi tashkilotida faoliyat yuritaётgan pedagoglar o'rtasida "Kompyuter savodxonasi" ko'rik-tanlov o'tkazish.

- pedagog va xodimlarning AKTdan foydalanishini kuzatib borish. Jamiyatimiz va maktabgacha talimda ruy berayotgan yangiliklardan tezkor xabordor bo'lishlarini nazorat qilish.

AKTdan foydalanishida noqonuniy saydlarga kirmasligini nazorat qilib borish va bolalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va qurilmalarini va internetdan samarali foydalanishni o'rgatish.

*Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida pedagog va hodimlar, tarbiya-lanuvchilarining ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish;*

- Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida pedagog va hodimlar, tarbiya-lanuvchilarining ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida kutubxonalar (kitob burchaklar)faoliyatini takomillashtirish

- "Men sevgan ertak qahramoni", "Buvimning erteaklari", "Mening kutubxonam", mavzularida kitoblar targ'ibotini olib borish

- Kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida rahbar va xodimlar, tarbiyachi-pedagoglar bilan kitoblar sovg'a qilish aktsiyasini tashkil etish

- Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida xafthaning xar juma kuni o'tkazilaётgan ma'naviyat soatlari mavzularini prezident asarlari bilan bog'lab borish

- Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida pedagog-tarbiyachilar bilan turkum ma'naviy – ma'rifiy uchrashuvlar tashkil etib borishda bolalar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish.

*Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash kabi topshiriqlarini bajarishni tashkil qilish;*

- Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarda faoliyat olib boraётgan xotin-kizlar ko'mitalari faoliyatini takomillashtirish, ulardagi mavjud muammolarni atroflicha o'rganib borish.

- Maktabgacha ta'lismi tashkilotlarda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida tuman (shahar) bandlikko'rnaklar bo'limi xamkorlikda bo'sh ish o'rinnari yarmarkalarini o'tkazib, qizlarimizni hunarli qilib tarbiyalab borish.

- Amalga oshirilgan ishlarni haqida ma'lumotlarni umumlashtirib tuman (shahar) Maktabgacha ta'lismi bo'limiga taqdim etish

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Beshta muhim tashabbus" bo'yicha maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida ushbu, chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishini tashkil etish zarur.

Shuningdek, maktabgacha ta'lismi tashkilotida hafta kunlarining nomlanishi quyidagicha;

1-kun, San'atim-faxrim mening

2-kun, Hunar-tuganmas xazina

3-kun, Kitob-ma'naviyatga eltuvchi kuch

4-kun, Sport-tinchlik timsoli

5-kun, Kompyuter savodxonligini maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida.

Yosh avlodni xar tomonlama kamol topgan, yetuk, jismoniy sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalash, eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan kelajagimiz bo'lmish bolaning ilk yoshlik chog'idan boshlab ularning o'sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug'unlanish ta'lim-tarbiya usuli va vositalaridan unumli foydalanish joizdir. Bolalarga tarbiya xaqida gapirar ekanmiz, bolalarning ma'naviy immunitetini, bo'sh vaqtlarin ularning qiziqishin xisobga olib, san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha to'garaklar tashkil etish, salomatligin mustahkamlashda har tomonlama chiniqtirish sport turlari bilan shug'ullanishiga qiziqishlarini oshirib borishda, kitob mutolaasi bilan shug'ullanish, turli kasb-xunarga bo'lgan ilk ko'nikmalarin shakillantirishda bolalarning eng sevimli vositasi - bu o'yin ekanini yodimizda saqlashimiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ózbekiston Respublikasi 2016-jil 29-dekabrda PQ-2707 son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'grisida"gi qarori.
2. Ózbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanтирish Konsepsiysi. 2019 jil , 8 may.
3. "Umumiy tipdag'i davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida" Nizom. Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 jil 13 maydag'i 391-soni "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. Ózbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qoyiladigan "Davlat talablari" 2018jil , 18 iyun.
5. Jetilistirilgen "Ilk qadam" mamlaketiлик oqiw baǵdarlamasi Ózbekiston respublikasi mektepke shekemgi ta'lim ministrligi 2022-jil 4-fevral
6. "Ilk qadam" mamlaketiлик oqiw baǵdarlamasi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. Toshkent, 2018 jil .
7. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.
8. Abdurahimova.D.A "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashdaxalq ertaklaridan foydalanish".T-2003
9. Roziqova M,Umarova K,Murodova N.Maktabgacha ta'lim muasasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlanтирuvchi o'yinlar majmuasi.-Toshkent,2013y.

#### **Internet materiallari.**

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)